



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

XORAZM VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR



2024- YIL YANVAR - SENTABR


ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2024- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalari hajmi 8 865,1 mlrd so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,6 % ni tashkil etdi.

Jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 8,8 % ni yoki 778,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 8086,9 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 91,2 % i o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 1467,3 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,5 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 20,0 % i yoki 1775,3 mlrd so'mi o'zlashtirildi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1187,2 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,1 % ini yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 13,4 % ini tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd so'm

Respublika byudjeti
294,6 mlrd so'm



Korxonalar mablag'lari
1 467,3 mlrd so'm

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi
130,3 mlrd so'm



Aholi mablag'lari
1 775,3 mlrd so'm

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
31,5 mlrd so'm



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar
4 686,1 mlrd so'm


O'z Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar
321,8 mlrd so'm



Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
158,2 mlrd so'm

Shuningdek, tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 158,2 mlrd so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 1,8 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,2 % ni tashkil qildi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 321,8 mlrd so'm (3,6 % va 67,3 % ni tashkil etib), boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 4686,1 mlrd so'm (52,9 % va 72,6 % punktga ko'paydi), Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan – 294,6 mlrd so'm (3,3 % va 52,9% ga kamaydi), suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan – 130,3 mlrd so'm (1,5 % va 75,6 % punktga ko'paydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Xiva shahrida – 2,9 marta (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 728,8 mlrd so'm), Yangibozor tumanida – 188,2 % (607,9 mlrd so'm), Gurlan tumanida – 155,1 % (439,4 mlrd so'm), Qo'shko'pir tumanida – 134,0 % (974,4 mlrd so'm), Urganch tumanida – 132,5 % (1 002,3 mlrd so'm).

2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


Shahar va tumanlar	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Viloyatdagi ulushi
Xorazm viloyati	8 865,1	112,6	100,0
Urganch sh.	1 920,2	96,7	21,7
Xiva sh.	728,8	294,1	8,2
Bog'ot	320,2	76,1	3,6
Gurlan	439,4	155,1	5,0
Qo'shko'pir	974,4	134,0	11,0
Urganch	1 002,6	132,5	11,3
Hazorasp	499,3	86,6	5,6
Tuproqqal'a	495,8	110,5	5,6
Xonqa	394,3	80,6	4,4
Xiva	645,4	106,4	7,3
Shovot	390,1	73,0	4,4
Yangiariq	446,6	94,2	5,0
Yangibozor	607,9	188,2	6,9

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm



Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyat bo'yicha yuqori ulushi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Urganch shahrida – 21,7 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1920,2 mlrd so'm), Urganch tumanida 11,3 % (1 002,6 mlrd so'm), Qo'shko'pir tumanida 11,0 % (974,4 mlrd so'm), shundan eng quyi ulush esa Bog'ot – 3,6 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 320,2 mlrd so'm), Xonqa tumanida 4,4 % (394,3 mlrd so'm), Shovot tumanida 4,4 % (390,1 mlrd so'm) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2024- yilning yanvar-sentabrda 4414,2 ming so'm yoki 110,5 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Xiva shahriga to'g'ri kelib, 7347,3 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 2,9 martani tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Yangibozor tumanida 6536,5 ming so'm (184,5 %), Gurlan tumanida 2779,1 ming so'm (152,2 %) va Qo'shko'pir tumanida 5318,9 ming so'm (131,5 %) darajada qayd etildi.

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish



0,0 km
uzunlikdagi gaz
tarmoqlari ishga
tushirildi

Umumiy maydoni
892,2 ming kv.m
bo'lgan turar joylar
ishga tushirildi



202,2 km
uzunlikdagi suv
tarmoqlari ishga
tushirildi



150 o'ringa
mo'ljallangan
maktabgacha ta'lim
muassasalari ishga
tushirildi



Qishloq joylarda
811,8 ming kv.m
bo'lgan turar joylar
ishga tushirildi

2274
o'quvchi o'ringa
mo'ljallangan
umumta'lim maktablari
ishga tushirildi



Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi (% da)



26,5% Mashina, uskuna, inventar

69,0% Qurilish-montaj ishlari

4,5% Boshqa xarajatlari

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 69,0 %, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari – 26,5 %, boshqa xarajatlarning ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (% da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 649,9 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 26,1 %, ishlab chiqarish sanoati – 745,9 mlrd so'm (30,1 %), qurilish – 34,3 mlrd so'm (1,4 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 38,3 mlrd so'm (1,5 %), tashish va saqlash – 590,7 mlrd so'm (23,7 %) va boshqa faoliyat turlari – 430,5 mlrd s o'm (17,2 %).


Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

Shahar va tumanlar	Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish, mlrd so'm		Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish, nisbatan % da	
	Jami:	Shu jumladan, kreditlar:	Jamiga:	Asosiy kapitalga investitsiyalar:
Xorazm viloyati	5 007,9	3 820,7	100,0	56,5
Urganch sh.	1 010,1	516,2	20,2	11,4
Xiva sh.	583,8	528,3	11,7	6,6
Bog'ot	76,3	76,3	1,5	0,9
Gurlan	262,3	262,3	5,2	3,0
Qo'shko'pir	665,0	647,6	13,3	7,5
Urganch	557,3	519,5	11,1	6,3
Hazorasp	151,9	65,9	3,0	1,7
Tuproqqal'a	272,8	159,4	5,4	3,1
Xonqa	99,3	32,5	2,0	1,1
Xiva	492,9	492,9	9,8	5,6
Shovot	128,0	128,0	2,6	1,4
Yangiariq	259,4	-	5,2	2,9
Yangibozor	448,8	391,6	9,0	5,1

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy tarkibida xorijiy investitsiyalar 5 007,9 mlrd so‘mni tashkil etdi, shuningdek, 3 820,7 mlrd so‘m xorijiy kreditlarga to‘g‘ri keldi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Xiva shahiga to‘g‘ri kelib, jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 56,5 % ni, Urganch shahrida – 11,4 %, Qo‘shko‘pir tumanida – 7,5 % darajada kuzatildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish (mlrd so‘m)



Jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiy hajmiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 3,6 % yoki 321,8 mlrd so‘mni, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lmagan xorijiy kreditlari – 56,5 % yoki 5007,9 mlrd so‘mni, shundan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya – 13,4 % yoki 1187,2 mlrd so‘mni tashkil qildi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar – bu real mablag'larni yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar (kapitalni shakllantiruvchi investitsiyalar);

Asosiy kapitalga investitsiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi;

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar – umumiy kapitalda 10 foizdan kam bo'lmagan ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo'yilmalaridir;

O'stiriladigan (ekiladigan) aktivlar – mahsulot olish maqsadida ko'p martalik foydalaniladigan zotdor, mahsuldor, ishchi qoramaollar, bog'lar va boshqa ekinlar;

Intellektual mulkchilik mahsulotlari – o'zining ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchilariga daromad keltiradigan, sotilishi mumkin bo'lgan tadqiqotlar, ishlanmalar, innovatsiyalar natijasidir;

Asosiy vositalarni kapital ta'mirlashga investitsiyalarga uskunalar, mashinalar, transport vositalarini (bunda asosan, agregatni to'liq qismlarga ajratish, eskirgan barcha qism va uzellarni almashtirish yoki tiklash, asosiy detal va qismlarni ta'mirlash, agregatni yig'ish, sozlash va sinab ko'rish ishlari), bino va inshootlarni (eskirgan konstruksiya va detallarni almashtirish yoki ularni ta'mirlanayotgan obyektning foydalanish imkoniyatini oshiruvchi, yanada mustahkam va tejamkorlariga almashtirish) kapital ta'mirlashlarni o'z ichiga oladi;

Ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar – yuridik shaxslar tomonidan yer uchastkalari, tabiatdan foydalanish obyektlarini; shartnomalar, ijara shartnomalari, litsenziyalarni (tabiat obyektlaridan foydalanish huquqini qo'shgan holda), ishchanlik obro'si va aloqalarini sotib olishga xarajatlar;

Ishlab chiqarilmagan aktivlarga mulkchilik huquqini o'tkazib berish bo'yicha xarajatlar – aktivlarni sotib olish va berib yuborish yoki mulkchilik huquqining o'zgarishi bilan bog'liq barcha xarajatlar. Mulchilik huquqi o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- aktivlarni sotib olgan shaxs hamda ularni sotgan shaxs tomonidan amalga oshirilgan professional xizmatlarga yoki komission to'lovlarning barchasi; ularga huquqshunos, arxitektor, yer o'lchovchi, injener va baholovchilarga gonorarlar, shuningdek, auksion o'tkazuvchi va ko'chmas mulk agentlariga komission to'lovlar kiradi;

- sotib oluvchiga taqdim etilgan, hisob-fakturasida alohida ko'rsatilgan har qanday savdo va transport xarajatlari;

- aktivni sotib olgan shaxsning aktivga mulkchilik huquqini o'tishi bilan bog'liq barcha soliqlar;

- olinayotgan yoki berilayotgan aktivning qiymatiga kiritilmagan yetkazib berish, o'rnatish yoki buzish bilan bog'liq har qanday xarajatlar;

- aktiv mavjud bo'lgan davrning so'ngida amalga oshirilgan har qanday yakuniy xarajatlar, misol uchun, aktiv joylashgan joyda atrof muhitni muhofaza qilish yoki inshootni xavfsizligini ta'minlash uchun xarajatlar;

Ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlar – tabiiy resurslar, ijara va litsenziya kelishuvlari, shartnomalari, gudvil va marketing aktivlari.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Telefon: (62) 224-65-22